

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

“ISTE'MOLCHILARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH TO'G'RISIDA”GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA QO'SHIMCHA VA O'ZGARTISHLAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 12-oktabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 19-noyabrda ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi 221-I-sonli [Qonuniga](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, № 5-6, 59-modda; 2002-yil, № 4-5, 74-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 12, 413-modda; 2006-yil, № 10, 536-modda; 2008-yil, № 4, 183-modda; 2010-yil, № 10, 380-modda; 2013-yil, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda; 2019-yil, № 12, 891-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilsin:

1) [5-modda](#) quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqidagi, savdo va xizmat ko'rsatish qoidalari to'g'risidagi ma'lumot iste'molchiga davlat tilida taqdim etiladi. Mazkur ma'lumot qo'shimcha ravishda boshqa tillarda ham taqdim etilishi mumkin”;

2) [6-moddaning](#):

[birinchi qismi](#) quyidagi mazmundagi jumla bilan to'ldirilsin:

“Bunda mazkur ma'lumot tovarlarning etiketkalarida, tamg'alarida, texnik hujjatida yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) ayrim turlari uchun qabul qilingan boshqa usulda iste'molchilarga yetkazilishi mumkin”;

[ikkinchi qismi](#):

quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“tovarning (ishning, xizmatning) nomi”;

[ikkinchi — o'n ikkinchi xatboshilari](#) tegishincha uchinchi — o'n uchinchi xatboshilar deb hisoblansin;

[beshinchi xatboshisining](#) o'zbekcha matnidagi “bahosi” degan so'z “narxi” degan so'z bilan almashtirilsin;

[o'ninchi xatboshisi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“ishlab chiqaruvchining (ijrochining, sotuvchining) to'liq nomi va joylashgan eri (yuridik manzili), litsenziyalar va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning QR-kodi (matriksali shtrix kodi), import qilinadigan tovarlar uchun esa ishlab chiqaruvchining hamda import qiluvchining nomi va joylashgan eri (yuridik manzili)”;

quyidagi mazmundagi o'n birinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“tovar kelib chiqqan mamlakatning nomi”;

[o'n birinchi, o'n ikkinchi va o'n uchinchi xatboshilari](#) tegishincha o'n ikkinchi, o'n uchinchi va o'n to'rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

[uchinchi qismi](#) quyidagi mazmundagi uchinchi va to'rtinchi qismlar bilan almashtirilsin:

“Tovar (ish, xizmat) to'g'risidagi ma'lumot iste'molchiga davlat tilida taqdim etiladi. Mazkur ma'lumot qo'shimcha ravishda boshqa tillarda ham taqdim etilishi mumkin.

Texnik jihatdan tartibga solinishi majburiy bo'lgan tovar bo'yicha iste'molchiga uning texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi to'g'risida tegishli ma'lumotlar taqdim etilishi kerak”;

to'rtinch qismi beshinchi qism deb hisoblansin;

3) 10-modda:

birinchi qismining ikkinchi jumlasini quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tovarlarni kreditga sotish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi”;

quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda amalga oshirilishi mumkin. Sotuvchining (ijrochining) haq to'lash shakliga qarab tovarning ayni bir markasi (modeli, artikuli), shuningdek bir xil hajmdagi va sifatidagi ishlar, xizmatlar uchun har xil narxlar (tariflar) belgilashi, shu jumladan ularni sun'iy ravishda oshirishi yoki pasaytirishi taqiqlanadi. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun naqd pulsiz shaklda haq to'langanda, iste'molchilarga rag'batlantirishlar berilishi mumkin”;

4) 17-modda:

to'rtinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tovarni kreditga sotish to'g'risidagi shartnoma bekor qilinganligi munosabati bilan tovar qaytarilgan taqdirda, tovar qaytarilguniga qadar shartnoma bo'yicha iste'molchi tomonidan to'langan pul summasi unga qaytarib beriladi, shuningdek kredit olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarning hamda kredit bo'yicha hisoblangan foizlar summasining o'rnini qoplanadi”;

quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Agar taraflarning kelishuvida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, iste'molchi tomonidan to'langan pul summasini unga qaytarish tovar uchun haq to'lash qanday shaklda amalga oshirilgan bo'lsa, xuddi shunday shaklda amalga oshiriladi”;

beshinchi qismi oltinchi qism deb hisoblansin;

5) 18-modda:

quyidagi mazmundagi ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to'ldirilsin:

“Agar tovardan foydalanilmagan, u shikastlanmagan, qadog'i bilan qaytarilgan bo'lsa, uning iste'mol xususiyatlari saqlangan va ushbu sotuvchidan sotib olganligini tasdiqlovchi asoslar bo'lsa, iste'molchining tovarni almashtirish yoxud qaytarib olish haqidagi talabi qanoatlantirilishi lozim.

Agar taraflarning kelishuvida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, iste'molchi tomonidan to'langan pul summasini unga qaytarish tovar uchun haq to'lash qanday shaklda amalga oshirilgan bo'lsa, xuddi shunday shaklda amalga oshiriladi”;

ikkinchi qismi to'rtinchi qism deb hisoblansin;

6) 20-modda quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Tovarda (ishda, xizmatda) nuqsonlar borligi va uning normativ hujjatlar talablariga muvofiq emasligi tasdiqlangan taqdirda, sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) tekshiruv (test, ekspertiza) o'tkazgan iste'molchiga yoki iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakolatli davlat organlariga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) tekshirish (testdan o'tkazish, ekspertiza qilish) bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini to'liq qoplashi kerak”;

7) 21-modda quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Shartnomaga iste'molchilarning qonunchilikda nazarda tutilgan huquqlarini kamsitadigan shartlarni kiritish, shuningdek ularga qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va afzalliklarni bermaslik taqiqlanadi”;

8) 23-modda:

quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnomaviy munosabatlarda iste'molchi qonunchilikda nazarda tutilgan o'z talablari qanoatlantirilishi uchun ustuvor huquqqa ega”;

uchinchi qismi to'rtinchi qism deb hisoblansin;